

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XOLMIRZAYEVA FERUZA ABDULLAYEVNA

**MATBAA KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI MARKETING
STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
economic sciences**

Xolmirzayeva Feruza Abdullayevna

Matbaa korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish
.....3

Холмирзаева Феруза Абдуллаевна

Повышение конкурентоспособности полиграфических предприятий на
основе маркетинговых стратегий..... 27

Xolmirzayeva Feruza Abdullayevna

Enhancing the competitiveness of printing enterprises through marketing
strategies 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works58

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XOLMIRZAYEVA FERUZA ABDULLAYEVNA

MATBAA KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI MARKETING
STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH

08.00.11 – Marketing

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Iqt892 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Allayorov Shamsiddin Amonullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Soliyeva Gulbaxor Axmadjanovna
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” “___” kuni soat “___” dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-75; faks: (99871) 239-28-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G.Q. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

O. Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

Sh. Allayarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida matbaa korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi, chunki raqobat muhitida iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur o'rganish, maqsadli segmentlarni aniqlash, brend qiymatini shakllantirish va raqamli marketing instrumentlaridan samarali foydalanish orqali mahsulot va xizmatlar qiymat zanjirini qayta tashkil etish, mahsulotlarning bozordagi pozitsiyasini mustahkamlash hamda daromad oqimlarini diversifikatsiya qilish imkoni yaratiladi. Bundan tashqari, innovatsion reklama texnologiyalari, mijozlar bilan uzluksiz aloqa va bozor konyunkturasiga moslashuvchan narx siyosatining yuritilishi orqali matbaa korxonalari nafaqat ichki, balki xalqaro bozorlarda ham o'z raqobat ustunligini mustahkamlashi mumkin. "Jahon tijorat bosma bozori hajmi 2024-yilda 501,36 mlrd AQSH dollarga baholangan va 2025-yildan 2030-yilgacha yillik o'rtacha o'sish darajasi 3,2 foiz bo'lishi kutilmoqda"¹. Global matbaa bozoridagi inqirozli vaziyatlar matbaa va noshirlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun yangi texnologik ukladlarga moslashuvchan texnologik rivojlanish, mijozlarga shaxsiylashtirilgan matbaa xizmatlarini ko'rsatish, bosma mahsulotlar ta'minot zanjirlarida iste'molchilarni talabini samarali qondirishga yo'naltirilgan samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Jahon amaliyotida matbaa sanoati korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, jumladan, korxonalarni raqamli muhitda yangi bozor imkoniyatlarini ochishga qaratilgan innovatsion marketing strategiyalarini joriy etish, bosma nashrlarga mijozlar xulq-atvor xususiyatlarini tadqiq etish, matbaa mahsulotlari va nashriyot kompaniyalari uchun samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish, elektron savdo tizimini va ta'minot tizimini xalqaro darajada yo'lga qo'yish, nashriyotlarning global raqamli muhitda faoliyat yuritishi va raqobatbardoshlini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda so'ngi yillarda matbaa va noshirlik sohalariga ilg'or fan-texnika yutuqlari joriy etilib, zamonaviy darajaga ko'tarildi, nashr etilayotgan kitoblar va barcha bosma mahsulotlar sifati yaxshilanib, xalqaro standartlarga moslashtirildi. Mamlakat matbaa sanoati nafaqat iqtisodiyotning muhim tarmog'i, balki aholini ijtimoiy-ma'naviy rivojlanishiga yuqori hissa qo'shuvchi tarmoq hisoblanib, mazkur bozorda o'ziga xos marketing muhiti shakllangan. Respublikada matbaa va nashriyotchilik sohalarida 3 mingga yaqin korxonalar samarali faoliyat yuritib, 15 mingdan ortiq aholi mazkur sohada ish bilan band. Ammo kitob savdosi va savdo obyektlari, kitob do'konlari va ulgurji savdo korxonalari xususiylashtirilib, ularning o'z faoliyatini o'zgartirishi, nashr qilingan bosma nashrlar, jurnallar va kitoblarning taqsimot tizimlarining bozor talabiga mos rivojlanmaganligi ayniqsa,

¹ <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/commercial-printing-market>

raqamli transformatsiya natijalari bosma nashrlarga bo'lgan talabining pasayishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, axborot-telekommunikatsiya tizimini rivojlanishi, elektron kitoblarni chop etilishi, internetdan foydalanib axborotlar olish kabi omillar bosma nashrlarga ham raqobatni kuchayishiga olib keldi. Natijada bosma nashr etish, tarqatish va sotish muammosini keskinlashtirdi. Mazkur holatlar matbaa korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish borasidagi ishlarni jadallashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktyabrdagi PF-169-son "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 15-avgustdagi PQ-295-son "Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 7-avgustdagi PQ-286-son "Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 12-oktabrdagi PQ-392-son "Sanoat ishlab chiqarishida xom ashyo uzluksizligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha qulayliklarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-dekabrdagi 684-son "140 ta ilg'or sanoat korxonasi" dasturini amalga oshirish va "Sanoat ipotekasi" tizimini joriy qilishga doir chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 20-iyuldagi 300-son "Ayrim sanoat sohalarida ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning atrof-muhitga va aholi salomatligiga salbiy ta'sirini kamaytirish va muqobil energiya resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda soha faoliyatiga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning bajarilishida mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Matbaa korxonalari raqobatbardoshlik xususiyatlarini tadqiq qilishning ilmiy-nazariy jihatlarini ko'plab xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan. Bu borada Safonov Y., Gutkevych S., Shenderivska L., Amri L. H., Webb J. V., Ndumia S. V., Ng'ang'a V., Kabata D., Bramble J., Aseh K., Khorasani M. kabilarning ilmiy ishlari klassik ishlarga aylangan². Sanab o'tilgan tadqiqotchilarning iqtisodiyot faniga qo'shgan salmoqli

² Safonov Y., Gutkevych S., Shenderivska L. Peculiarities of Management of Enterprises in the Printing Industry //Baltic Journal of Economic Studies. – 2022. – T. 8. – №. 3. – C. 174-184.; Amri L. H. A. et al. The Challenges and Strategies of Printing Industry //Proceedings of the First Jakarta International Conference on Multidisciplinary Studies Towards Creative Industries, JICOMS. – 2022. – T. 16. – C. 354.; Webb J. W. Selected marketing practices and profitability of medium-size companies in the commercial printing industry. – New York University, 1987.; Ndumia S. W., Ng'ang'a W., Kabata D. Marketing strategy influence on sales performance of registered commercial printing firms in Nairobi //International Academic Journal of Human Resource and Business Administration. – 2020. – T. 3. –

hissasiga qaramay, ularda korxonalar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha marketing strategiyalarini muvofiq tanlash, shuningdek, innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinmagan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida bu borada Klimenko V. V., Purinova G. K., Buyalskaya D. V., Rundigina D. D., Kitainov A. B., Andreev I. A., Gnatyuk S. P., Vinogradova A. I., Dimitrova T. Y., Kardash Y. I. singari olimlar³ tadqiqotlar olib borganlar. Mazkur olimlarning ilmiy ishlarida matbaa korxonalari raqobatbardoshligini baholashning turli usullaridan foydalanish hamda marketing strategiyalarini qo'llash bo'yicha ilmiy tavsiyalar berilgan. Qayd etilgan ishlarda matbaachilik va noshirlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarning raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirishning tizimlashgan tahlillari va ichki bozorni himoyalashga qaratilgan strategiyalarni belgilash muammolari yetarlicha tadqiq etilmagan.

O'zbekistonda sanoat korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirishning umumiy jihatlari A.Soliyev, M.S.Qosimova, M.R.Boltabayev, Z.D.Adilova, M.A.Ikramov, Sh.J.Ergashxodjayeva, I.U.Ne'matov, M.Q.Pardayev, M.M.Muxammedov, G.A.Soliyeva, J.Jalilov, Z.A.Xakimov, O.Jumayev, I.A.Axmedov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rsatib berilgan⁴. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari ko'lamiga qaramay, hozirgi O'zbekistonning matbaa korxonalari

№. 8. – С. 113-132.; Bramble J. Training needs for the book publishing and printing industries //Developing knowledge workers in the printing and publishing industries. – 2002. – С. 220.; Aseh K. et al. The Future of E-Commerce in the Publishing Industry //2021 2nd International Conference on Smart Computing and Electronic Enterprise (ICSCEE). – IEEE, 2021. – С. 199-205.; Khorasani M. et al. A review of Industry 4.0 and additive manufacturing synergy //Rapid Prototyping Journal. – 2022. – Т. 28. – №. 8. – С. 1462-1475.

³ Клименко В. В., Пуринова Г. К. Проблемы совершенствования имиджа издательской организации посредством //Вопросы формирования кросс-культурной компетентности молодежи в современной России. – 2021. – С. 33-38.; Буяльская Д. В. Функциональное моделирование сети процессов полиграфического предприятия //Ответственный редактор. – 2024. – С. 32.; Рундыгина Д. Д. Моделирование цепей поставок в издательско-полиграфической отрасли на основе метода матрицы логистического преимущества //Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета. – 2020. – №. 2 (122). – С. 224-230.; Китаинов А. Б. Обзор полиграфической отрасли и основных конкурентов рынка в г. Краснодар //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 781-793.; Андреев И. А., Гнатюк С. П. Разработка стратегии развития полиграфического предприятия с применением методов многомерного анализа //Метрология, стандартизация и управление качеством. – 2022. – С. 12-14.; Виноградова А. И. Анализ конкурентоспособности предприятий, обслуживающих полиграфическую отрасль г. Волгограда //Редакционная коллегия. – 2020. – С. 46.; Димитрова Т. Ю., Кардаш Я. И. продвижение Предприятия полиграфической отрасли в современных условиях //Социально-гуманитарные инновации: стратегии фундаментальных и прикладных научных исследований. – 2021. – С. 777-780.

⁴ Boltabayev M.R. O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent: TDIU, 2005.–35 b.; M.A.Ikramov, Sh.Dj.Ergashxodjaeva, Z.D.Adilova, I.U.Ne'matov Upravlenie brendom. O'quv qo'llanma. –T.; Iqtisodiyot, 2019-yil 305 bet.; Pardayev M.Q., MuxammedovM.M. Xizmat ko'rsatish soxasini rivojlantirish – ustivor masala. “Servis” J. №1, 2009.; Soliyeva G. “O'zbekistonda kitob savdosining rivojlanishi va uning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligini oshirish omillari”, 08.00.05–Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti (iqtisodiyot fanlari). (PhD) dissertatsiyasi. SamISI. 2018-yil.; Jalilov J. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida marketing strategiyalarini qo'llashning asosiy yo'nalishlari //Economics and Innovative Technologies. – 2022. – Т. 10. – №. 6. – S. 237-244.; Xakimov Z. Sanoat klasterlarning sinergiya samarasini aniqlash va baholashga ilmiy yondashuvlar //Economics and Innovative Technologies. – 2023. – Т. 11. – №. 2. – S. 154-165.; Jumayev O. Korxonaning marketing faoliyatini kompleks iqtisodiy tahlil qilishning ilmiy-metodologik asoslarini ishlab chiqish //“Ekonomika i turizm” mejdunarodniy nauchno-innovatsionnoy jurnal. – 2023. – Т. 1. – №. 9.; Axmedov I. A. Korxonalarda marketing strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari //Raqamli iqtisodiyot (Sifrovaya ekonomika). – 2024. – №. 7. – S. 242-264.

raqobatbardoshligini oshirish omillarini tadqiq etish, marketing strategiyalaridan foydalanish orqali ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish, istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash, marketing innovatsiyalari va faoliyatini diversifikatsiyalash masalalari yetarlicha tadqiq etilmaganligi mazkur tadqiqot ishi mavzusining tanlanishiga sabab bo‘lgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi matbaa korxonalarini raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

matbaa sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha marketing strategiyalari nazariyalarini o‘rganish va tizimli tahlil qilish;

matbaa mahsulotlari bozorida raqobat va uni shakllantiruvchi omillarni aniqlash va marketing muhitiga ta’sirini o‘rganish;

matbaa korxonalarini marketing faoliyatini xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida yangi bozorlarga kirib borish strategiyalaridan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

matbaa korxonalarida marketing strategiyalaridan foydalanish uchun raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini baholash;

matbaa tovarlari bozorida assortiment bo‘yicha raqobat holatini tahlil qilish asosida marketing strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatlarini aniqlash;

matbaa sanoatda shakllangan raqobat muhitida strategik marketing imkoniyatlarini baholash;

matbaa korxonalarining assortiment strategiyalarini shakllantirish va diversifikatsiyalash yo‘nalishlarini aniqlash;

matbaa korxonalarini rivojlantirishda raqobatda ustunlik marketing strategiyalaridan foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

matbaa korxonalarida marketing strategiyalaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib O‘zbekistonda nashriyot-matbaa faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib matbaa korxonalarini raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish jarayonlarida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda statistik tahlil, empirik baholash, iqtisodiy-matematik, tizimli tenglamalar modeli, omili tahlil, ekspert baholash, SWOT tahlil, so‘rov, tanlanma kuzatuv, GE/McKinsey, PLS-SEM, PEST strategik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

matbaa korxonalarini raqobatbardoshligini ishlab chiqarish faoliyati, marketing, resurslardan foydalanishning samaradorlik ko‘rsatkichlari hamda bozorga

moslashish holati bo'yicha qiyosiy kompleks baholashning jamlanma integral ko'rsatkichlari diapazonlari "yuqori" ($0,71 \leq R_i \leq 1$), "o'rta" ($0,51 \leq R_i \leq 0,70$) va "past" ($0 \leq R_i \leq 0,50$) chegaralarida bo'lishi asoslangan;

tarmoq jozibadorligi va biznes birlik imkoniyatlari matritsasining muqobil maydonlariga joylashtirish asosida mahsulot portfelini yaratish orqali matbaa korxonalarida taklif etilayotgan assortiment bo'yicha mahsulot raqobatbardoshligi darajasining "past" (1,0 – 2,5), "o'rtacha" (2,6 – 3,9), "yuqori" (4,0 – 5,0) oraliqlarida raqobatbardoshlikni oshirish strategiyalarini tanlash asoslangan;

matbaa korxonalarining sotuvlar rentabelligi, yalpi foyda rentabelligi hamda asosiy faoliyat rentabelligi darajasiga mutanosib holda moslashuvchan xarajatlar bo'yicha yetakchilik, differensiatsiya hamda fokuslash strategiyalari orqali raqobatbardoshligi oshirish taklifi asoslangan;

matbaa mahsulotlari ishlab chiqarish va noshirlik xizmatlarining rivojlanishiga iqtisodiy ($A_n=1,881$; 0,345), ijtimoiy va madaniy ($D_n=0,358$; 0,359) omillarning ijobiy, siyosiy ($B_n=-0,970$; -0,407), raqamli texnologik rivojlanish va axborotlashtirish ($C_n=-0,347$; 0,674) omillarining salbiy ta'sirlariga ko'ra raqobat strategiyalaridan foydalanish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

matbaa korxonalari raqobatbardoshligini ekspert baholash usuli takomillashtirilgan;

marketing strategiyalari bo'yicha ilmiy yondashuvlarga asoslangan holda marketing strategiyalari turkumlangan;

matbaa mahsulotlari bozorida talabga ta'sir etuvchi omillarning PEST tahliliga moslashuvchan tizimli tasnifi amalga oshirilgan;

korxonalar raqobatbardoshligini baholashda taqqoslashga asoslangan differensial usuldan foydalanishning matematik modeli ishlab chiqilgan;

bosma nashrlarning assortiment bo'yicha raqobatbardoshlik mezonlari aniqlangan va baholashga yondashuvlar taklif etilgan;

matbaa korxonalari raqobatbardoshligini qiyosiy kompleks baholash ko'rsatkichlari guruhlangan;

matbaa korxonalarining raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirishning konseptual sxemasi taklif etilgan;

matbaa korxonalarining mahsulot assortiment portfelini yaratish asosida raqobatbardoshligini ta'minlash mexanizmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni taniqli iqtisodchi olimlarning marketing tamoyillari borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va umumlashtirish, matbaa va noshirlik korxonalarining statistik va buxgalteriya hisobotlari, muallifning marketing tadqiqoti natijalari, rasmiy statistik ma'lumotlar hamda boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati matbaa korxonalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari, raqobatbardoshlikni to'laqonli baholash imkoniyatini beruvchi metodologik

yondashuvlarni ishlab chiqishda foydalaniladi. Taklif etilgan tadqiqot usullari korxonalarning marketing strategiyalari va dasturlari hamda axborot bazalarini shakllantirishda xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari matbaa, nashriyot-matbaa ijodiy uylari, poligrafiya korxonalari bozor faoliyatining konseptual asoslarini takomillashtirishda qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati matbaa korxonalari bozor faoliyati rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini o'rganishda, bozor ulushini oshirishda, yangi bozor segmentlariga kirib borish va unda o'z mavqeyini ta'minlash bo'yicha strategiyalar ishlab chiqishda, istiqbolli marketing dasturini shakllantirish va prognozlashda foydalaniladi. Matbaa korxonalari raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha taklif etilgan innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish korxonalarining istiqbolli bozorlarga kirib borishi va yangi bozor segmentlarida faoliyatni kengaytirish borasida shakllantiriladigan biznes rejalar va maqsadli dasturlarni belgilashda foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Matbaa korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

matbaa korxonalari raqobatbardoshligini ishlab chiqarish faoliyati, marketing, resurslardan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari hamda bozorga moslashish holati bo'yicha qiyosiy kompleks baholashning jamlanma integral ko'rsatkichlari diapazonlari "yuqori" ($0,71 \leq R_i \leq 1$), "o'rta" ($0,51 \leq R_i \leq 0,70$) va "past" ($0 \leq R_i \leq 0,50$) chegaralarida bo'lishi taklifi asoslangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2025-yil 10-fevraldagi №06-02-16-943 son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilik "SHARQ" nashriyot-matbaa AJ faoliyatida foydalanilishi natijasida 2024-yilda resurslardan foydalanish samaradorligi 5,7 foizga oshgan va iqtisodiy samaradorlik ta'minlangan;

tarmoq jozibadorligi va biznes birlik imkoniyatlari matritsasining muqobil maydonlariga joylashtirish asosida mahsulot portfelini yaratish orqali matbaa korxonalarida taklif etilayotgan assortiment bo'yicha mahsulot raqobatbardoshligi darajasining "past" ($1,0 - 2,5$), "o'rtacha" ($2,6 - 3,9$), "yuqori" ($4,0 - 5,0$) oraliqlarida raqobatbardoshlikni oshirish strategiyalarini tanlash taklifi "Ofset-surxon" MCHJ faoliyatida sinovdan o'tkazilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2025-yil 10-fevraldagi №06-02-16-943 son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida "Ofset-surxon" MCHJda maqsadli assortiment portfelini shakllantirishga va tashqi reklama stendlari mahsulot turi bo'yicha Surxondaryo viloyatida bozor ulushini 2023-yilga nisbatan 2024-yilda 3,6 foizga oshirishga erishilgan;

matbaa korxonalarining sotuvlar rentabelligi, yalpi foyda rentabelligi hamda asosiy faoliyat rentabelligi darajasiga mutanosib holda moslashuvchan xarajatlar bo'yicha yetakchilik, differensiatsiya hamda fokuslash strategiyalari orqali

raqobatbardoshligi oshirish taklifi “Ofset-surxon” MCHJ faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2025-yil 10-fevraldagi №06-02-16-943 son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida “Ofset-surxon” MCHJning mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishga erishilgan va mahsulot sotishdan tushgan tushumi 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 11,8 foizga o‘sgan;

matbaa mahsulotlari ishlab chiqarish va noshirlik xizmatlarining rivojlanishiga iqtisodiy ($An=1,881; 0,345$), ijtimoiy va madaniy ($Dn=0,358; 0,359$) omillarning ijobiy, siyosiy ($Bn=-0,970; -0,407$), raqamli texnologik rivojlanish va axborotlashtirish ($Cn=-0,347; 0,674$) omillarining salbiy ta’sirlariga ko‘ra raqobat strategiyalaridan foydalanish taklifi Surxondaryo viloyati axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2025-yil 10-fevraldagi №06-02-16-943 son ma’lumotnomasi). Natijada matbaa va noshirlik faoliyati tarmoq korxonalarining istiqboldagi rivojlanish ko‘rsatkichlarini yanada aniqlashtirish va muvofiqlashtirish imkonini yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 12 ta ilmiy ish, shundan 3 ta mahalliy jurnallarda, 2 ta xalqaro jurnallarda maqola, 7 ta ma’ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, uning hajmi 152 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy ishlar rejaları bilan aloqadorligi aniqlangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiqi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Matbaa sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida matbaa korxonalari raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha marketing strategiyalari nazariyalari o‘rganilgan. Matbaa mahsulotlari bozorida raqobat va uni shakllantiruvchi omillar tasniflangan. Xorijiy mamlakatlarda matbaa korxonalari marketing faoliyati tajribalari o‘rganilgan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish takliflari keltirilgan.

Mamlakatlar iqtisodiyotining globallashuv jarayonida matbaa sohasini raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyatga egadir. Sohani raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim elementlaridan biri marketing

strategiyalarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etishdir. Marketing strategiyasining o'ziga xos jihati shundaki, u sotishni tashkil etish, talab va raqobat muhitini o'rganish kabi konseptual yo'nalishlarni strategik boshqarishga asoslangan holda tashkil etiladi.

Matbaa sanoati global ko'rinishda dizayndan tortib taqsimot kanallarigacha va bosma bo'lmagan xizmatlarni taqdim etishgacha bo'lgan barcha bosib chiqarish jarayonini qamrab oladi. Shu sababli, sanoat ta'rifi nafaqat haqiqiy chop etish bilan shug'ullanadigan ko'plab kompaniyalarni, balki hujjatlar aylanish tizimlari, laminatlash, o'rnatish, kesish, laklash, rang va dizayn va boshqa xizmatlarni ham o'z ichiga oladi.

Matbaachilik qadimdan rivojlangan tarmoq sifatida, doimo ilm-fan taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shadigan va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini ta'minlovchi tarmoq sifatida rivojlangan. O'zbek tilining izohli lug'atida "matbaa" tushunchasi "bosmaxona", matbaachilik esa matbaa ishi, noshirlik, nashriyotchilik sifatida talqin etilgan. Matbaachilik kitob va jurnal, gazeta, yorliq, kartografiya, qadoqlash, ko'rgazma va boshqa bosma mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan keng ko'lamli sanoat tarmog'idir. Matbaa mahsulotlarining ko'plab holatlarda "tipografiya", ya'ni bosib chiqariladigan sanoat sifatida qayd etiladi. Biroq, matbaa va tipografiya o'rtasidagi bir qator farqlar mavjud. Matbaa korxonalarida bir vaqtning o'zida kitoblar, gazetalar va masalan, kalendarlar chop etilishi mumkin. Bosmaxona katta formatdagi plakatlar, reklama afishalari va turli bosma materiallar chop etish imkonini beradi.

Sanoatning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan noshirlik-matbaa sohasi televideniye, radio va internetga qo'shimcha ravishda, axborot oqimi materiallarini mujassamlashtirishning asoslaridan biri bo'lib, iqtisodiyotning bosma mahsulotlar ehtiyojlarini qondiradigan tarmoqdir.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi matbaa sanoatiga va noshirlikka ko'plab tashqi omillarning sezilarli ta'siri kuzatilmoqda. Sababi, kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi, elektron kitoblar sonini ko'payish, an'anaviy axborot manbalarini onlayn-resurslar bilan almashtirish bilan bog'liq. Shu sababli, mahalliy nashriyot va bosmaxonalarining holati ushbu sohadagi ustuvorlik yo'nalishlarini hisobga olgan holda innovatsion rivojlanishni amalga oshirishlari zaruriyati mavjud.

Matbaa mahsulotlariga bo'lgan talab bir qator omillar ta'sirida shakllanadi. Ushbu omillar iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik jihatlarni o'z ichiga oladi. Matbaa mahsulotlari bozorida talabga asosiy omillarni ta'sirini baholash orqali mazkur tarmoqni istiqboldagi o'zgarishlariga yanada aniqroq baho berish imkoni mavjud.

Matbaa mahsulotlariga talabni shakllantiruvchi omillarni PEST tahlil orqali tizimlashtirish ushbu talabni tushunish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. PEST tahlil (Political, Economic, Social, Technological) — siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillarni tahlil qilish usulidir. 1-jadvalda matbaa mahsulotlari bozorida talabga ta'sir etuvchi asosiy omillar tasnifi keltirilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ma'lum bo'ladiki, aksariyat omillar matbaa sanoatida talabni shakllantirishga yuqori ta'siri kuzatiladi. Shunga ko'ra, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida matbaa mahsulotlari ishlab chiqarish hajmning istiqbolda rivojlanishi prognoz va boshqa modellar asosida o'rganilishi maqsadga muvofiq.

1-jadval

Matbaa mahsulotlari bozorida talabga ta'sir etuvchi omillar tasnifi⁵

PEST omillari	Omillar	Xususiyati
Siyosiy omillar	Davlat tenderlari va buyurtmalari	Davlat muassasalari uchun hujjatlar, ta'lim materiallari va qonunchilik nashrlari talabini shakllantiradi
	Soliq siyosati	Davlat tomonidan qo'llaniladigan bojxona tariflari va soliq imtiyozlari matbaa mahsulotlariga talabni shakllantirishga ta'sir qiladi
	Reklama qonunchiligi	Reklamada foydalaniladigan materiallar uchun davlat tomonidan qo'yiladigan cheklovlar va talablar bosma mahsulotlarga bo'lgan talabni cheklashi yoki oshirish mumkin
	Davlatning ta'lim va madaniyat e'tibori qaratishi	Ta'lim va madaniyatga davlat tomonidan yuqori e'tibori qaratilishi madaniy tadbirlar ko'lamini oshiradi, darsliklar va ilmiy jumallarga talabni shakllantiradi
Iqtisodiy omillar	Iqtisodiy o'sish darajasi	Iqtisodiy barqarorlik ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi va mamlakatda ijtimoiy-madaniy rivojlanishni ta'minlaydi bu esa kitoblar va ilmiy manbalarga bo'lgan talabni oshiradi
	Aholining daromad darajasi	Aholining xarid qobiliyatini oshishi shaxsiylashtirilgan va sifatli mahsulotlarga talabni shakllantiradi
	Kichik biznesni rivojlanishi	Kichik biznesni rivojlanishi vizitkalar, brendbuklar va reklama materiallariga talab oshirib matbaa mahsulotlari bozorini rivojlantirishni ta'minlaydi
	Xom-ashyo va energiya narxlari	Qog'oz, rang va energiya narxlarining oshishi mahsulot narxiga ta'sir etib matbaa mahsulotlariga bo'lgan talabga salbiy ta'sir ko'rsatadi
	Import-eksport	Xom ashyo yoki mahsulotning import xarajatlari talab darajasiga ta'sir ko'rsatib matbaa mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarini oshirishi va import tovalaming kirib keng tarqalishi ichki raqobat muhitiga ta'sir ko'rsatishi mumkin
Ijtimoiy omillar	Demografik o'zgarishlar	Aholining yosh va kasbiy tuzilishi matbaa mahsulotlariga talabni shakllantiradi.
	Ta'lim va madaniyat darajasi	Kitoblar, jumallar va ilmiy nashrlarga talab ta'lim darajasi va madaniy rivojlanish bilan bog'liq
	Estetik talablar	Aholining vizual dizayn va sifatga bo'lgan talabi ortishi sifatli va personallashtirilgan mahsulotlarga talabni oshiradi
	Ekologik xabardorlik	Aholining ekologik xabardorligini oshishi qayta ishlangan qog'oz mahsulotlari va bosma mahsulotlarga ijtimoiy talabni oshirishni ta'minlaydi
Texnologik omillar	Raqamli texnologiyalar	Raqamli chop etish texnologiyalarini rivojlanishi tezkor va arzon mahsulotlarga talabni oshiradi
	Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish	Jarayonlarni avtomatlashtirish mahsulot tannarxini pasaytiradi va mijozlarning mahsulotga talabini oshiradi
	Onlayn buyurtmalar va shaxsiylashtirish	Mijozlar onlayn tarzda dizayn tanlab, shaxsiylashtirilgan mahsulotlarga buyurtma berish imkoniyatiga ega bo'ladi va talabni rag'batlantiradi
	Innovatsion materiallar	Yangicha qog'oz, rang va chop etish texnologiyalari yuqori sifatli mahsulotlarga talabni oshiradi

Jahon tijorat bosma bozori segment nuqtayi nazaridan, poligrafiya bosmaxonasi 2024-yilda 225,4 mln AQSH dollar daromad keltirgan. Raqamli bosib chiqarish — bu prognoz davrida eng tez o'sishni qayd etadigan eng daromadli bosib chiqarish texnologiyasi segmenti sifatida qaralmoqda. Ayniqsa mamlakatlar miqyosida Hindiston 2025-yildan 2030-yilgacha eng yuqori o'rtacha o'sishga erishadigan mamlakat sifatida 2030-yilga kelib 39183,1 mln AQSH dollarga yetishi

⁵ Muallif ishlanmasi.

kutilmoqda. Mazkur bozorda daromad bo'yicha Shimoliy Amerika 2024-yilda global tijorat bosma bozorining 33,2 foizini tashkil etgan bo'lsa, mamlakatlar bo'yicha AQSh 2030-yilda daromad bo'yicha jahon bozorida yetakchilik qilishi kutilmoqda.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, korxonalarni raqobat muhitida samarali faoliyatini ta'minlashga qaratilgan strategik aktivlarni topishni talab etmoqda. Matbaa sanoatining dolzarb muammolariga duch kelayotgan sharoitda biznesning uzluksizligini ta'minlash, bozorda omon qolish va biznesni yuritishda muvaffaqiyatga erishish uchun muammolarni bartaraf etishga qaratilgan marketing strategiyalarni ishlab chiqish jahon matbaachiligining asosiy muammosiga aylangan.

Dissertatsiyaning **“Matbaa tovarlari bozorining rivojlanishi va marketing muhiti tadqiqoti”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda matbaa sanoatini va nashirlikni rivojlanish holati va bozor tendensiyalari tahlil qilingan. Matbaa korxonalarining raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini baholashga yondashuvlar ishlab chiqilgan. Matbaa korxonalarining raqobatbardoshligini baholash orqali strategik rivojlantirish imkoniyatlari aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyingi davrlarda nashriyot ishi va matbaa sanoati sohaslarida tubdan sifat o'zgarishlarini ta'minlovchi huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlar yaratildi. 1996-yil 30-avgustda O'zbekiston Respublikasining “Nashirlik faoliyati to'g'risida”gi qonun qabul qilingan. Mazkur qonun, nashriyotlarga o'z yo'nalishlarini, mavzularini, ixtisoslashuvini, nashrlar nusxasini, muallifni mustaqil aniqlash va tanlash huquqlarini berdi. Nashrga tayyorlangan qo'lyozmalarni senzurdan o'tkazish bekor qilindi. Nashr etilgan kitob va boshqa mahsulotlarni erkin shartnomaviy munosabatlar asosida sotish joriy etilgan.

Mamlakatdagi yana bir asosiy islohotlardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-martdagi PQ-4640-son “Nashirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” qarori qabul qilingan. Mazkur qaror bilan nashirlik va matbaa sohasida davlat aralashuvini keskin kamaytirish, nashriyot va matbaa sohasida qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, shuningdek, ta'lim muassasalari uchun sifatli darsliklar va o'quv-metodik majmualar yetkazilishini ta'minlash kabi vazifalar belgilab berildi. Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasida matbaachilikni rivojlantirish va mazkur sohada faoliyat yurituvchi bozor subyektlarining erkinlarini kafolatlash va ularga raqobatli bozor sharoitlarini ta'minlash borasida ko'plab islohotlar amalga oshirilib kelingan.

O'zbekistonda mingdan ziyod korxonalar matbaachilikka ixtisoslashgan bo'lib, 2015-yilda ularning soni 695 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda tarmoqda jami 1139 ta korxona davlat ro'yxatidan o'tgan. Shuningdek, har yili o'rtacha 170 ga yaqin korxonalar mahsulot ishlab chiqarmagan.

O'zbekiston Respublikasida 2010-yilda yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish (bosma nashrlar) sanoatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 209,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi

0,55 foizni tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish sanoati tarkibidagi ulushi esa 0,73 foizni tashkil etgan. 2024-yilda esa, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish hajmi 2217,7 mlrd so'mni tashkil etib, sanoat mahsuloti tarkibidagi ulushi 0,38 foizni, ishlab chiqarish sanoati tarkibidagi ulushi 0,45 foizni tashkil etgan. Mazkur holatlar ma'lum bo'ladiki, matbaa sanoatini rivojlanishi O'zbekiston Respublikasida boshqa sanoat tarmoqlarini rivojlanishiga nisbatan past ko'rsatkichlarni tashkil etgan. Biroq, matbaa sanoatining rivojlanishi aholini ijtimoiy va axloqiy rivojlantirishga hissa qo'shuvchi asosiy tarmoq sifatida qaranganda mazkur sanoatni rivojlanish tendensiyalarini chuqurroq tahlil etish va rivojlantirish borasida aniq strategik yo'nalishlar belgilash lozimligi aks etmoqda (2-jadval).

2-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik), mlrd so'm⁶


Yillar	Sanoat mahsuloti	Ishlab chiqarish sanoati	Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	Sanoat mahsuloti tarkibida yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirishning ulushi, foizda	Ishlab chiqarish sanoati tarkibida yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirishning ulushi, foizda
2010	38119,0	28742,8	209,6	0,55	0,73
2011	47587,1	37295,3	234,2	0,49	0,63
2012	57552,5	44347	338,3	0,59	0,76
2013	70634,8	56068,7	407,2	0,58	0,73
2014	84011,6	68225,7	473,3	0,56	0,69
2015	97598,2	78492,3	573,2	0,59	0,73
2016	111869,4	91483	939,9	0,84	1,03
2017	148816	120686,9	1129,7	0,76	0,94
2018	235340,7	189642,6	1260,3	0,54	0,66
2019	322535,8	254860,9	1361,9	0,42	0,53
2020	368740,2	305928,6	1081,5	0,29	0,35
2021	456056,1	378186,4	1683,2	0,37	0,45
2022	553265	460491,8	2627,5	0,47	0,57
2023	658991,7	556382,4	2217,7	0,34	0,40
2024	880198,5	745094,4	3359,7	0,38	0,45

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, bosma nashrlar ishlab chiqarish yoki O'zbekistonda mazkur sanoat tarmog'ining taklifi sezilardi darajada o'sish tendensiyalari saqlanib qolmoqda. Shuning bilan birga, bosma kitoblar, broshyuralar va shunga o'xshash bosma mahsulotlari importi ham yillar davomida yuqori suratlarda o'sib borgan. Ayniqsa, 2023-yilda mamlakatga qariyb 68 mln. AQSH dollari miqdorida bosma kitoblar importi amalga oshirilgan.

Matbaa korxonalarining marketing strategiyalarini shakllantirish zarurati O'zbekiston ushbu tarmoq bozorida shakllangan raqobat muhitida samarali faoliyat yuritishi va faol iqtisodiy o'sishga erishishi bilan bog'liq. O'zbekiston mustaqilligining birinchi kunidan boshlab, aholining asosiy iste'mol tovari hisoblangan kitoblar va bosma nashrlar savdosini tashkil qilish masalalariga ham alohida e'tibor berib kelingan. Respublikaning barcha viloyatlarida kitoblar va davriy nashrlarga ixtisoslashgan do'konlar, chakana savdo shoxobchalarining samarali, erkin, sifatli faoliyat yuritishiga yetarlicha sharoit va imkoniyatlar

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi. www.stat.uz

yaratilgan. Biroq, so‘ngi vaqtlarda raqamli texnologiyalar matbaa va nashriyotchilik sohasini tubdan o‘zgartirib yubordi. O‘zbekiston Respublikasida 1000 aholiga nisbatan nashrlar soniga e‘tibor qaratilganda, 1000 aholiga nisbatan adabiy-badiiy nashrlar soni 2014-yildan keyingi davrda pasayish tendensiyasi kuzatilgan. 2010-yilda jami nashrlar soni 7805 nusxani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 880 nusxani tashkil etgan. Eng yuqori pasayish tendensiyasi gazetalar nashrida aks etmoqda. Gazetalar nashri 2010-yilda 1000 aholiga nisbatan gazetalar nashri 6548 nusxani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 957 nusxani tashkil etgan (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 1000 aholiga nisbatan nashrlar soni, nusxa⁷

1000 aholiga nisbatan adabiy-badiiy nashrlar soni xam so‘ngi yillarda keskin pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. 2014-yilda 1000 aholiga nisbatan adabiy-badiiy nashrlar 1174 nusxani tashkil etib, shu yilgacha bo‘lgan davrda o‘shirish tendensiyaga ega bo‘lsa, keyingi yillar davomida pasayib borgan. Eng past ko‘rsatkich 2022-yilda kuzatilgan bo‘lib 57 nusxani tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasida bosma nashrlarning yillik tiraji ham pasayish tendensiyalari kuzatilgan bo‘lib, 2010-2015-yilgacha bo‘lgan davrda barqarorlikni saqlab qolgan mazkur tendensiya 2017-yildan boshlab pasayish kuzatila boshlagan. Yuqori pasayish tendensiyasi esa 2022-yilda kuzatilgan. 2024-yilga kelib kitoblar va broshyuralar yillik tiraji 7 million nusxani, gazetalar yillik tiraji 12,7 million nusxa, jurnallar va boshqa vaqtli nashrlarning yillik tiraji 0,8 million nusxani tashkil etgan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda matbaa korxonalarining shakllangan raqobat va raqamli bozor muhitida raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha marketing strategiyalarini shakllantirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Ilmiy ishlar doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nashriyot va matbaa korxonalarining marketing faoliyatida bir qator muammolar mavjud, jumladan:

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. <https://lib.stat.uz/uz/features/turmush-darajasi-va-ijtimoiy-soha>

– texnologiya va asbob-uskunalarini rivojlantirish (raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi nashriyot va matbaa korxonalarini doimiy ravishda jihozlarini yangilab turishni talab qiladi);

– onlayn platformalar oʻrtasidagi raqobat (zamonaviy dunyoda koʻplab nashrlar raqamli formatga oʻtdi, bu esa onlayn platformalar bilan qattiq raqobatni yuzaga keltiradi);

– samarasiz marketing strategiyalari (baʼzi kompaniyalar isteʼmolchilarning xohish-istaklarining oʻzgarishini hisobga olmasdan, eskirgan marketing yondashuvlariga rioya qilishlari mumkin);

– auditoriyani notoʻgʻri tushunish (barcha nashriyot va matbaa korxonalari oʻz auditoriyasini chuqur oʻrganmaydilar, bu esa mahsulotni notoʻgʻri joylashtirishga va maqsadli boʻlmagan marketingga olib kelishi mumkin);

– xarajat va narxlash (koʻpincha yuqori ishlab chiqarish va bosib chiqarish xarajatlari raqamli alternativlar bilan raqobatlashishni qiyinlashtirishi mumkin).

Korxonaning raqobatbardoshligini har tomonlama baholash korxona strategiyasini ishlab chiqish maqsadida amalga oshiriladi. Matbaa korxonalarining maqsadlarga erishish uchun marketing vositalaridan foydalanish boʻyicha raqobatbardoshligi masalalari va ilgari oʻtkazilgan adabiyotlarni koʻrib chiqish va tahlil qilish, shuningdek, oʻtkazilgan marketing tadqiqotlariga muvofiq, tahlil qilingan koʻrsatkichlarning bir qator parametrlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Korxonalar raqobatbardoshligini baholashda taqqoslashga asoslangan differensial usuldan foydalanish taklif etiladi:

$$q_i = \frac{R_i}{R_{i0}} * 100\% \quad (1,2,3, \dots n) \quad (2.1)$$

Bunda,

q_i – i – mezon boʻyicha raqobatbardoshlikning yagona etalon koʻrsatkichi;

R_i – tahlil qilinayotgan mahsulot uchun i -chi mezon qiymati;

R_{i0} – maksimal i - mezon qiymati;

n – mezonlar soni;

Matbaa korxonalarining raqobatbardoshlikni qiyosiy kompleks baholash uchun quyidagi koʻrsatkichlar guruhlarini taklif etiladi: 1. Ishlab chiqarish faoliyati koʻrsatkichlari; 2. Resurslardan foydalanish samaradorlik koʻrsatkichlari; 3. Marketing faoliyati koʻrsatkichlari; 4. Bozorga moslashish holati boʻyicha koʻrsatkichlar

Matbaa korxonalarining raqobatbardoshligini baholash uchun quyidagi korxonalar tanlab olingan: “Ofset-surxon” MCHJ, “Surxon-nashr” MCHJ, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Oʻzbekiston respublikasi “Sharq” nashriyot-matbaa AJ yuz yildan ortiq tarixga ega boʻlgan nashriyot-matbaa kompaniyalaridan biridir. Jamiyat oʻzining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi 2019-yilda gazeta mahsulotlari bosish boʻyicha quvvatlardan 72,1 foizni kitob va jurnal bosish boʻyicha 75,1 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2021-yilgacha boʻlgan davrda mazkur tendensiyaning saqlashga harakat qilgan. Biroq, 2022-yilda mavjud quvvatlardan foydalanish darajasi yuqori suratlarda pasayish kuzatilgan boʻlib, gazeta mahsulotlari boʻyicha 49,5 foizni, kitob va jurnallar chop etish boʻyicha 43,7 foizni tashkil etgan va 2023-yilgi holatda xam ushbu tendensiya saqlangan (3-jadval).

**“SHARQ” nashriyot-matbaa AJning ishlab chiqarish quvvatlaridan
foydalanish holati,⁸ foizda**

Mahsulot turlari	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Gazeta mahsulotlari	72,1	67,7	71,8	49,5	49,7
Kitob va jurnallar nashr qilish	75,1	65,1	73,2	43,7	44,6

“SHARQ” nashriyot-matbaa AJ raqobatbardoshligini baholash uchun iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yillar davomidagi o‘zgarishlarini tarmoqning umumiy o‘rishiga nisbatan baholash orqali aniqlash mumkin. Raqobatbardoshlikni baholash avvalo ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshlik mezonlariga ko‘ra baholanadi. Mahsulot raqobatbardoshligi baholash uchun taklif etilgan (2.1) formula orqali “SHARQ” nashriyot-matbaa AJning mahsulot raqobatbardoshligini baholash amalga oshiriladi.

$$q_i = \sum_n \frac{R_i}{R_{i0}} * \frac{(1,2,3,...n)}{n} = \frac{232}{350} = 0,66$$

“SHARQ” nashriyot-matbaa AJning ekspert baholash natijalariga ko‘ra mahsulot raqobatbardoshligi etalonga nisbatan 0,66 koeffitsiyentni tashkil etgan va mazkur holat raqobatbardoshlikning yuqori darajada emasligini aks ettirmoqda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa AJning raqobatbardoshligini baholash uchun asosiy mezonlar bo‘yicha 2022-2023-yillardagi iqtisodiy faoliyat natijalari asosidagi statistik ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. “SHARQ” nashriyot-matbaa AJning raqobatbardoshligini baholash bo‘yicha umumiy faoliyat statistikasi asosida hisoblangan. Natijalarni umumlashtirish uchun maksimal qiymatlar qabul qilingan va yakuniy natija olingan (4-jadval).

$$K_i = \frac{\sum_{n=1}^{16} K_n}{n} = \frac{10}{16} = 0,62$$

Natijalarga ko‘ra “SHARQ” nashriyot-matbaa AJning raqobatbardoshligini baholash natijasi 0,62 koeffitsiyentni tashkil etmoqda. Matbaa korxonalarining tovar va korxona raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini jamlanma integral ko‘rsatkichni hisoblash uchun imitatsion funksiyadan foydalaniladi:

$$R = \sum_{i=1}^n K_i^1 + \sum_{j=1}^m q_j^2 \quad (2.2)$$

bunda,

R — korxona raqobatbardoshligining jamlanma integral ko‘rsatkichi;

K_i^1 - korxona raqobatbardoshligini bo‘yicha i -guruhdagi ko‘rsatkichlar miqdoriy koeffitsiyenti;

q_j^2 - korxona tovarlari raqobatbardoshligi bo‘yicha j -guruhdagi ko‘rsatkichlar miqdoriy koeffitsiyentlari;

$K_i^1 = 1$; va $q_j^2 = 1$ ahamiyatlilik koeffitsiyenti bo‘yicha qiymatlar yig‘indisi tengligini anglatuvchi shartga asosan, ushbu koeffitsiyentlar tanlangan omillar soni orqali vazn koeffitsiyentlari aniqlanadi. Korxonaning tovar raqobatbardoshligi baholash uchun jami 6 ta kritik mezonlardan foydalanilgan, korxona raqobatbardoshligini baholash uchun esa jami 16 ta kritik mezonlardan

⁸ “SHARQ” nashriyot-matbaa AJ ma’lumotlari asosida tuzilgan.

foydalanilganligi inobatga olib (2.2) formulaga vazn koeffitsiyentlarini qo'yib quyidagicha ifodalanadi:

$$R_i = 0,73 * \sum_{i=1}^n K_i^1 + 0,27 \sum_{j=1}^m q_j^2 \quad (2.3)$$

Mazkur formuladan foydalangan holda “SHARQ” nashriyot-matbaa AJning raqobatbardoshligining integral ko'rsatkichi (R_i) quyidagicha hisoblanadi:

$$R_i = 0,73 * \sum_{i=1}^n K_i^1 + 0,27 \sum_{j=1}^m q_j^2 = 0,73 * 0,66 + 0,27 * 0,62 = 0,64$$

4-jadval

“SHARQ” nashriyot-matbaa AJning raqobatbardoshligini baholash natijalari⁹

Belgilanishi	Baholash mezon	2022-yil	2023-yil	Hisoblash ko'rsatkichi	Ball
Ishlab chiqarish faoliyati ko'rsatkichlari					
K1	Mahsulot ishlab chiqarishning yillik hajm indeksi	112 %	-33,2	$\leq 5\%$	0
K2	Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish hajmi/yillik maksimal quvvat $\times 100\%$ (mahsulot turlari bo'yicha o'rtacha)	46,6	47,15	$\leq 70\%$	0
K3	Tahlil qilingan yilda amalga oshirilgan innovatsiyalar soni	0	1	Mavjud	1
K4	Umumiy chiqindilar hajmida qayta ishlanganlari ulushi, %	6 %	11 %	$\geq 5\%$	1
K5	Umumiy xodimlar sonida oliy ma'lumotli yoki sertifikatlangan xodimlar ulushi, %	25 %	32 %	$\geq 10\%$	1
K6	Tarmoqdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan korxonaning o'rtacha ish haqi nisbatan, %	18 %	22%	Yuqori	1
Resurslardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlari					
K7	Tannarx indeksi, %	4,9	1,9	$\leq 5\%$	1
K8	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar indeksi, %	0	0	$\leq 5\%$	1
K9	Mehnat samaradorlik indeksi, %	3,2	6,5	$\geq 5\%$	0
Marketing faoliyati ko'rsatkichlari					
K10	Umumiy mahsulot portfelida yangi mahsulotlarning ulushi	4	8	Mavjud	1
K11	Sotuv xarajatlari indeksi, %	45	207	$\geq 5\%$	1
K12	Mahsulotlarning o'rtacha narx indeksi, %	6,8	11,7	$\geq 10\%$	1
K13	Tannarh indeksi, %	-63,5	-67,6%	$\leq 10\%$	0
K14	Joriy qilingan marketing innovatsiyalari, birlik	0	1	Mavjud	1
K15	Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi ¹⁰	-	D	“S”, “D” toifa	0
Bozorga moslashish holati bo'yicha ko'rsatkichlar					
K16	Tarmoqning umumiy o'sishi indeksi/korxonaning mahsulot sotish ko'rsatkichining o'sish indeksi, koeffitsiyentda	0,85	2,9	$\leq 5\%$	0
	Jami ballar				10

Raqobatbardoshlikning jamlanma integral ko'rsatkichlari quyidagicha talqin qilinadi.

$0,71 \leq R_i \leq 1$ bo'lganda korxona yuqori raqobatbardoshlikka ega. Bunday holatda korxona o'z mahsulotlari yoki xizmatlari bilan bozor talablariga to'liq javob beradi va raqobatchilarga nisbatan ustunlikka ega.

$0.51 \leq R_i \leq 0.70$ bo'lganda korxona o'rtacha raqobatbardoshlik darajasida. Bu holatda bozorda ustunlikka erishish uchun qo'shimcha strategik choralar talab etiladi.

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁰ <https://chamber.uz/contractor-rating>.

$0 \leq R_i \leq 0.50$ bo'lganda korxona raqobatbardoshlik darajasi past, ya'ni bozorda raqobatchilarga nisbatan zaifroq.

Baholash natijalariga ko'ra "SHARQ" nashriyot-matbaa AJning raqobatbardoshligining jamlanma integral ko'rsatkichi 0,66 koeffitsiyentni tashkil etdi va korxona raqobatbardoshlikning o'rtacha darajada ekanligi aniqlandi. Bu korxona bozor talablarini to'liq qondirmayotganini yoki ba'zi mezonlar bo'yicha raqobatchilardan ortda qolayotganini ko'rsatadi. Mazkur holatlarni inobatga olgan holda korxonaning past ko'rsatkichlar qabul qilingan holatlari uchun samarali marketing strategiyalarini amalga oshirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish talab etiladi.

Dissertatsiyaning **"Matbaa korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish"** deb nomlangan uchinchi bobida matbaa korxonalarining mahsulot assortiment portfelini yaratish asosida raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlari asoslab berilgan. Matbaa korxonalarini raqobat ustunligini oshirish strategiyalarini taklif etilib, iqtisodiy samaradorligini oshirish borasida takliflar tayyorlangan. Matbaa korxonalarida maketing strategiyalaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Raqamli iqtisodiyotining rivojlanishi jarayonida matbaa korxonasi assortimentini optimallashtirish bilan bog'liq bo'lgan yangi vazifalarni puxta nazariy tushunish va amaliy amalga oshirishni talab qiladi. Korxonaning assortiment siyosatini boshqarishga yondashuvlar korxonalar marketing faoliyatining tovar strategiyalari doirasida ko'rib chiqiladigan muammo bo'lib, u bilan bog'liq masalalarda korxonalar uni amalga oshirish usullariga va bosqich darajasiga ahamiyat qaratgan holda raqobat muhitida ustunlikka erishish siyosati yotadi.

Mahsulot portfelini yaratishning bar qator usullari mavjud bo'lib, eng keng tarqalgan usullar sifatida GE/McKinsey matritsasidir. Mazkur usul korxonaning mahsulot portfelini tahlil qilish va faoliyat yo'nalishlarini strategik rejalashtirishda keng qo'llaniladi. Uning asosiy maqsadi bozor jozibadorligi va korxonaning raqobatbardoshlik pozitsiyasini baholash orqali qarorlar qabul qilishdir. GE/McKinsey matritsasiidan foydalanish uchun avvalo matbaa korxonalari tomonidan taklif etilishi mumkin bo'lgan mahsulot turlarini ajratib olish talab etiladi. Matbaa korxonalari tomonidan asosiy mahsulot assortimentini kengaytirilgan holda 8 ta kategoriyaga ajratish mumkin: standart mahsulotlar, ixtisoslashtirilgan mahsulotlar, ijodiy va shaxsiylashtirilgan mahsulotlar, reklama mahsulotlari, ekologik mahsulotlar, raqamli va zamonaviy yechimdagi mahsulotlar, sanoat va ixtisoslashgan sohalar uchun mahsulotlar, tadbirlar uchun maxsus mahsulotlar.

GE/McKinsey matritsasi asosida assortiment portfelini yaratish uchun matbaa korxonalarining mavjud assortiment portfeli va mijozlar tanlovi aniq mezonlar asosida baholash talab etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi istiqbolli assortiment to'plamini yaratishdir. Shunga asoslangan holda, matbaa korxonalari mahsulot portfelini yaratish usun mijozlar fikri o'rganilishi lozim. Mijozlar fikrini o'rganish bo'yicha asosiy baholash omillari quyidagilar: X1.1-bozor hajmi va o'sishi; X1.3-

daromadlilik darajasi; X1.4-raqobatbardoshligi; X1.5-iste'molchilarning ehtiyojlari. Mahsulot raqobatbardoshligini aniqlash uchun tanlangan omillar quyidagilar: X2.1-mahsulot sifati; X2.2-brend mavqeyi; X2.3-texnologik ustunlik; X2.4-xizmat ko'rsatish darajasi.

Mahsulotning bozor jozibadorligi va raqobatbardoshlik darajalari bo'yicha tuziladigan matritsa jami 9 ta sektorga bo'linadi bunda:

Vertikal o'qda — bozor jozibadorligi baholari ballari asosida darajalarni quyidagicha aniqlanadi:

Past (1.0 – 2.5): bozorda mahsulotga qiziqish yoki talab juda kam.

O'rtacha (2.6 – 3.9): bozorda mahsulotga talab bor, lekin raqobat yuqori yoki hajmi cheklangan.

Yuqori (4.0 – 5.0): bozorda mahsulotga katta qiziqish va ulush mavjud.

Gorizontaal o'qda — raqobatbardoshlik pozitsiyasi (past, o'rtacha, yuqori)

Raqobatbardoshlik pozitsiyasi darajalari (past, o'rtacha, yuqori):

Raqobatbardoshlik baholari asosida darajalar quyidagicha aniqlanadi:


Past (1.0 – 2.5): mahsulot sifat yoki xizmat darajasi bo'yicha raqobatchilarga nisbatan zaif.

O'rtacha (2.6 – 3.9): mahsulotda raqobatbardoshlik bor, ammo kuchli pozitsiyada emas.

Yuqori (4.0 – 5.0): mahsulot yuqori sifat, xizmat darajasi va innovatsionlik bilan ajralib turadi.

Har bir assortiment bo'yicha ma'lum mezonlar asosida baholangan assortiment bo'yicha miqdoriy ko'rsatkichlar tegishli tartibda GE/McKinsey matritsaga joylashtiriladi. GE/McKinsey matritsasi matbaa korxonalarining mahsulot portfelini strategik tahlil qilish va optimal qarorlar qabul qilish uchun samarali vosita hisoblanadi. "Ofset-surxon" MCHJning mahsulot turlari bo'yicha bozor jozibadorligi bahosi bo'yicha tanlangan omillar asosida baholash amalga oshirilgan bo'lib ular, 2024-yilgi korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlariga nisbatan hisoblangan. Mahsulot tularini quyidagi belgilash kiritish orqali (A1-vizitkalar, A2-reklama flayerlari, A3-bukletlar, A4-plakatlar, A5-taklifnomalar, A6-tashqi reklama stendlari, A7-Firma logotipi tushirilgan reklama tarqatmaslari, A8-tadbir dasturlari bukletlari, A9-beyjklar, A10-tadbirlar uchun uchun suvenir to'plamlari) tuzilgan GE/McKinsey matritsasi 2-rasmda keltirilgan.

2-rasmda "Ofset-surxon" MCHJning assortiment portfelini shakllantirish uchun GE/McKinsey tahlil usulidan foydalanilgan. Har bir mahsulot turi bo'yicha tegishli maydonlarga mos kelgan mahsulot turlari bo'yicha strategik imkoniyatlarni aniqlash va taklif etiladigan marketing strategiyalari 5-jadvalda keltiriladi.



2-rasm. GE/McKinsey matritsasi asosida “Ofset-surxon” MCHJning assortiment tahlili¹¹

GE/McKinsey matritsasi bo‘yicha olingan asosiy natijalardan ma’lum bo‘ladiki “Ofset-surxon” MCHJning raqobatbardosh ustunligi ta’minlovchi asosi mahsulot turi tashqi reklama stendlari (A6) ekanligi ma’lum bo‘lmoqda. Tashqi reklama stendlari (A6) mahsulot turi GE/McKinsey matritsasining “O‘rtacha raqobatbardoshlik va yuqori jozibadorlik” zonasiga tegishli bo‘lgani uchun, bu zonadagi mahsulotlar yuqori talabga ega, ammo raqobatbardoshlikni oshirish uchun aniq strategik yondashuvlarga zaruriyat mavjud. Shunga ko‘ra mazkur mahsulot bo‘yicha xarajatlar bo‘yicha ustunlikni ta’minlashga qaratilgan statik tahlillarni amalga oshirilgan.

5-jadval

Matbaa korxonalarining assortiment portfelini shakllantirish uchun GE/McKinsey matritsasi tizilishi¹²

	Yuqori raqobatbardoshlik	O‘rtacha raqobatbardoshlik	Past raqobatbardoshlik
Yuqori jozibadorlik	Mahsulot bo‘yicha investitsiya qilish (1-maydon)	Mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish (2-maydon)	Ishlab chiqishini saqlab turish (3-maydon)
O‘rtacha jozibadorlik	Bozorni rivojlantirish uchun rag‘batlantiruvchi marketing (4-maydon)	Mahsulotni saqlab turish (5-maydon)	Mahsulot ishlab chiqarishni pasaytirish (6-maydon)
Past jozibadorlik	Mahsulot ishlab chiqarishni pasaytirish (7-maydon)	Mahsulot ishlab chiqarishni to‘xtatish (9-maydon)	Mahsulot ishlab chiqarishni to‘xtatish (9-maydon)

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib korxonalar o‘z bozordagi raqobat ustunligini oshirish uchun quyidagi uchta asosiy strategiyani qo‘llashlari mumkin. Bu strategiyalar kompaniyaning resurslari, bozor sharoiti va maqsadlariga mos ravishda qo‘llaniladi:

1. Xarajatlar bo‘yicha yetakchilik (Cost Leadership). Korxona ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonida xarajatlarni minimallashtirib, bozorda eng arzon

¹¹ Muallif tomonidan tuzilgan

¹² Muallif tomonidan tuzilgan

narxni taklif qiladi. Bu strategiya bozorda katta ulushga ega bo'lish va raqobatchilarni chetlab o'tishga qaratilgan.

2. Differensiatsiya (Differentiation). Korxona mahsulotlari yoki xizmatlarini raqobatchilarnikidan farqli va qimmatli qilib ko'rsatadi. Bu strategiya xaridorlar uchun mahsulotni o'ziga xos qilishga qaratilgan.

3. Fokus (Focus Strategy). Korxona o'z strategiyasini muayyan mijoz guruhi, mahsulot segmenti yoki geografik bozorga yo'naltiradi. Fokus strategiyasi ikki xil ko'rinishda bo'ladi. Xarajatlar bo'yicha fokus: aniq bir segmentda xarajatlarni minimallashtirish. Differensiatsiya bo'yicha fokus: aniq bir segmentda o'ziga xos mahsulot yoki xizmat taklif qilish.

O'zbekiston Respublikasida noshirlik xizmatlari hajmga ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik omillar ta'sirini baholash orqali mazkur xizmatlarni istiqbollik rivojlanishiga kuchlik ta'sir etuvchi omillarni aniqlash imkoni mavjud. Matbaa sanoatini rivojlanganlik darajasini aks ettiruvchi asosiy bog'liq o'zgaruvchilar sifatida quyidagilar tanlangan: Y1-noshirlik xizmatlarini rivojlanishi; Y2-yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish hajmi;

Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida quyidagilar kiritiladi: iqtisodiy omillar, siyosiy omillar, raqamli texnologik rivojlanish va axborotlashtirishni omillar, ijtimoiy va madaniy omillar. Xar bir yashirin omil sifatida belgilangan o'zgaruvchilar uchun kritik qiymatlar miqdorlik statistik ko'rsatkichlar asosida baholanadi:

An-iqtisodiy omillar sifatida quyidagilar kiritiladi; A1-yalpi ichki mahsulot hajmi (ishlab chiqarish usulida); A2-yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (yillik); A3-chakana savdo hajmi (yillik), mlrd. so'm

Bn-siyosiy omillar sifatida quyidagilarni kiritiladi: B1-mahsulotlarga sof soliqlar (doimiy narxlarda, yillik), mlrd. so'm; B2-davlat byudjetidan asosiy kapitalga investitsiyalar;

Cn-raqamli texnologik rivojlanish va axborotlashtirishni omillari sifatida quyidagilarni kiritilari: C1-axborot sohasidagi xizmatlarning o'sishi; C2-internet tarmog'iga ulangan abonentlar sonini oshishi; C3-elektron tijorat savdo hajmining o'zgarish;

Dn-ijtimoiy va madaniy omillar sifatida quyidagi o'zgaruvchilar kiritiladi: D1-aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining o'zgarishi; D2-umumta'lim muassasalari sonining o'zgarishi; D3-umumta'lim muassasalarida o'quvchilar sonining o'zgarishi; D4-oliy ta'lim tashkilotlari sonining o'zgarishi; D5-oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar sonining o'zgarishi; D5-kitov va jurnallar sonining o'zgarishi;

Tanlangan yashirish omillarni ta'sir kuchini aniqlash uchun regressiyaning eng kichik kvadratlar usulidan foydalanish talab etiladi. Sababi, O'zbekiston mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha umumiy statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Agentligi tomonidan 2010-2023-yillar ma'lumotlariga asoslanib o'rganiladi. Noshirlik xizmatlarini rivojlanishi xamda yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning ta'sir samaralarini aniqlash uchun tizimli tenglamalarni modellashtirish (SEM) usulidan

foydalaniladi. Modelda An, Bn, Cn, Dn — latent o'zgaruvchilar sifatida tanlangan bo'lib, ushbu o'zgaruvchilar matbaa korxonalari raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida STEP tahlil uchun mos keluvchi to'g'ridan-to'g'ri o'lchab bo'lmaydigan o'zgaruvchilardir.

Latent o'zgaruvchilar bo'yicha tanlangan indikatorlar A1, A2, A3, B1, B2, C1, C2, D1 latent o'zgaruvchilarni qiymatini aniqlashga yordam beradigan endogen o'zgaruvchilardir. Latent o'zgaruvchilar bilan ularning indikatorlari o'rtasidagi bog'lanish koeffitsiyentlari omillarning regressiya koeffitsiyentini ifodalaydi.

6-jadvalda matbaa mahsulotlari ishlab chiqarish va noshirlik xizmatlarini rivojlanishiga omillar ta'sirini baholash natijalari keltirilgan bo'lib, unga ko'ra siyosiy omilning ta'siri noshirlik xizmatlarini rivojlanishi va matbaa mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlanishiga teskari ta'siri kuzatilmoqda. Bunga asosan ikkita omil kiritilgan bo'lib, birinchisi sof soliqlar bo'lsa, ikkinchisi davlat byudjet mablag'laridan umumiy investitsiyalardir. Natijalarga ko'ra so'ngi yillarda hukumat tomonidan matbaachilik va noshirlik faoliyatini qo'llab quvvatlovchi davlat imtiyozlari taklif etilmagan.

6-jadval

Matbaa mahsulotlari ishlab chiqarish va noshirlik xizmatlarini rivojlanishiga omillar ta'sirini baholash¹³

Yashirin omillar	Y1- noshirlik xizmatlarini rivojlanishi	Y2- matbaa mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlanishi
An-iqtisodiy omillar	1,881	0,345
Bn-siyosiy omillar	-0,970	-0,407
Cn-raqamli texnologik rivojlanish va axborotlashtirishni omillari	-0,347	0,674
Dn-ijtimoiy va madaniy omillar	0,358	0,359

Matbaa va noshirlik faoliyatini rivojlanishida tanlangan An-iqtisodiy omillarning ijobiy ta'sirini kuzatish mumkin. Iqtisodiy omillar sifatida YAIM hajm, yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonini o'sib borishi va chakana savdo hajmining o'sib borishi kabi omilarga ko'ra baholangan.

Natijalarga ko'ra noshirlik xizmatlarini rivojlanishida iqtisodiy omillarning ta'siri $\beta_i = 1,881$ eng yuqori ta'sirga ega omil sifatida namoyon bo'lgan. Omillarga nazar tashlanganda bozorga yangi korxonalarni kirib kelishi asosida ularning matbaa xizmatlariga bo'lgan talabi oshadi. Sababi, yangi korxonalar o'zini bozorga tanilishi uchun reklama bannerlaridan, tashqi reklamalar va bukletlardan foydalanish amaliyoti ko'p uchraydi. Shuningdek, chakana savdo hajmining oshib borishi xam matbaa xizmatlariga ijobiy ta'siri kuzatiladi. Chakana savdo matbaa noshirlik xizmatlaridan keng foydalanadi. Chakana savdo asosan B2C bozorda faoliyat yuritgani uchun bukletlar, flayerlar va turli tashqi reklamalarda doimiy ravishda talabi mavjud.

Noshirlik xizmatlarini rivojlanishiga Cn-raqamli texnologik rivojlanish va axborotlashtirishni omillarining salbiy ta'sirini kuzatish mumkin. Buning asosiy sababi texnologik taraqqiyot tufayli iste'molchilar o'zlari uchun bosma mahsulotlar

¹³ SMART-PLS 4.01 dasturi asosida olingan natijalar

tayyorlash imkonini beruvchi mini texnologiyalarga egadir. Biroq kitoblar va davriy nashrlarni chop etishga minitexnologiyalar imkon bermaydi. Shunga ko'ra, matbaa mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlanishi texnologik rivojlanishning ta'siri ijobiydir.

Dn-ijtimoiy va madaniy omillar ham matbaa mahsulotlari ishlab chiqarishga hamda noshirlik xizmatlarini rivojlanishiga kuchli ijobiy ta'siri kuzatiladi. Mazkur yashirin o'zgaruvchi qiymatlarini olish uchun foydalanilgan va tanlab olingan o'zgaruvchilar hisoblangan aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining o'sishi matbaachilikni rivojlanishiga ijobiy ta'siri mavjuddir. Oliy va umumta'lim muassasalari va ulardagi o'quvchilar sonining ham ko'payib borishi matbaa mahsulotlari ishlab chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va bular asosiy iste'molchilar sifatida qaralishi lozim.

Olib borilgan PEST ta'lil natijalariga ko'ra matbaa mahsulotlari ishlab chiqarish va noshirlik xizmatlari ko'rsatish uchun quyidagilarga yuqori ahamiyat qaratilishi lozim: uzoq muddat rivojlantirish uchun aniq strategik dasturlar va yo'l xaritalari ishlab chiqilishi, davlat buyurtmalarida ishtirok etishning yanada shaffoflashgan tizimlari va imtiyozlaridan foydalanish, ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish, raqamli formatdagi xizmatlar (PDF, elektron kitoblar)ni sotishni kengaytirish, QR-kod orqali raqamli ma'lumotlarni matbaa mahsulotlariga integratsiya qilish, shaxsiylashtirilgan mahsulotlar uchun raqamli chop etish texnologiyalaridan foydalanish, ilmiy, madaniy va ta'lim sohalaridagi yetakchi muassasalar bilan hamkorlik qilish va ularni yaratgan asarlarini ommabopligi oshirish va boshqalar.

XULOSA

Dissertatsiya tadqiqotidan olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'zbekistonda matbaa sanoati nafaqat iqtisodiyotning muhim tarmog'i, balki aholini ijtimoiy-ma'naviy rivojlanishiga yuqori hissa qo'shuvchi tarmoq hisoblanib, mazkur bozorida o'ziga xos marketing muhiti shakllangan. Mazkur tarmoq axborot-telekommunikatsiya tizimlarini rivojlanishi, elektron chop etish tizimining rivojlanishi va internetdan foydalanib axborotlar olish kabi omillar sababli matbaa korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish borasidagi ishlarni jadallashtirishni talab etilmoqda.

2. Matbaa korxonalarining marketing strategiyalarini shakllantirish zarurati O'zbekistonning ushbu tarmoq bozorida shakllangan raqobat muhitida samarali faoliyat yuritishi va faol iqtisodiy o'sishga erishishi bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida bosma nashrlarning yillik tiraji yuqori darajada pasayish tendensiyalarini kuzatilayotgan bir vaqtda ushbu bozor talabiga samarali ta'sir ko'rsata oladigan strategiyalar asosida matbaa korxonalari raqobatbardoshligini oshirish talab etiladi.

3. Ilmiy nazariy jihatlar korxonalarining marketing strategiyasi bo'yicha umumiy tasniflarda eng keng kategoriya sifatida raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan harakatlar ekanligi nazarda tutilgan. O'z navbatida, raqobat ustunliklari

korxona uchun uzoq muddat bozordagi harakati, korxona rahbari va xodimlarning manfaatlarini ta'minlovchi asosiy yondashuv sifatida talqin qaralishi lozim.

4. Matbaa korxonalarining marketing strategiyalari shakllanishi bozordagi raqobat kuchlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda kechadi va unga mos strategiyalar esa doimo shakllanishda davom etadi. Ushbu holatlarni inobatga olganda matbaa mahsulotlariga bo'lgan talabning dinamikasi va raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, va ekologik omillar ta'sirlarini hisobga olgan holda strategiyalar ishlab chiqish talab etiladi.

5. Matbaa korxonalarining raqobatbardoshligini kompleks baholashda mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari, korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlari, korxonaning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, zamonaviy yondashuvlarni hisobga olgan holda korxonaning ekologik ko'rsatkichlar asosida baholash zaruriyati mavjud.

6. Dissertatsiyada taklif etilgan matbaa korxonalarining raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirishning konseptual sxemasi korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning raqamli marketing strategiyalari, innovatsion marketing strategiyalari va brending strategiyalarini ishlab chiqish imkonini yaratib, korxonalarning maqsadli bozor talabini shakllantirishga yordam beradi.

7. Matbaa korxonalari raqobatbardoshligini ishlab chiqarish faoliyati, marketing, resurslardan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari hamda bozorga moslashish holati bo'yicha qiyosiy kompleks baholashning jamlanma integral ko'rsatkichlari va taklif etilgan diapazonlar asosida baholash orqali korxonalar raqobatbardoshligini qiyosiy diagnostika qilish imkoni mavjud;

8. Matbaa korxonalarida taklif etilayotgan assortiment bo'yicha bozor jozibadorligi va mahsulot raqobatbardoshligini GE/McKinsey matritsasining muqobil maydonlariga joylashtirish asosida mahsulot portfelini yaratish orqali raqobatbardoshlikni oshirish strategiyalari bo'yicha samarali qarorlar qabul qilish imkoni beradi.

9. Matbaa korxonalarining faoliyatini sotuvlar rentabelli, yalpi foyda rentabelligi hamda asosiy faoliyat rentabelligi darajasiga ko'ra baholash korxonalar uchun moslashuvchan xarajatlar bo'yicha yetakchilik, differentsiatsiya hamda fokuslash strategiyalari asosida raqobatbardoshligi oshirishni ta'minlaydi.

10. Matbaa mahsulotlari ishlab chiqarish va noshirlik xizmatlarining rivojlanishiga iqtisodiy ($A_n=1,881; 0,345$), ijtimoiy va madaniy ($D_n=0,358; 0,359$) omillarning ijobiy, siyosiy ($B_n=-0,970; -0,407$) va raqamli texnologik rivojlanish va axborotlashtirish ($C_n=-0,347; 0,674$) omillarining salbiy ta'sirlariga ko'ra raqobat strategiyalaridan foydalanish raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.01.2021.I.16.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ХОЛМИРЗАЕВА ФЕРУЗА АБДУЛЛАЕВНА

**ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ
ПОЛИГРАФИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ОСНОВЕ
МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ**

08.00.11 – Маркетинг

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией (регистрационный номер B2025.1.DSc/Iqt892).

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Хакимов Зиёдулла Ахмадович
доктор экономических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Аллаёров Шамсиддин Амонуллаевич
доктор экономических наук, профессор

Солиева Гулбахор Ахмаджановна
доктор философии (PhD) по экономическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Термезский государственный университет

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 г. в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2020.I.16.02 при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-01-49; факс: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный №___). Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-75; факс: (99871) 239-28-75.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года.
(протокол реестра №__ от «__» _____ 2025 года).

Г.К. Абдурахманова

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней д.э.н.,
профессор

О.Джурабаев

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

Ш. Аллаяров

Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой экономике повышение конкурентоспособности полиграфических предприятий на основе маркетинговых стратегий является важным фактором обеспечения их устойчивого развития в условиях современных рыночных отношений, поскольку глубокое изучение потребностей потребителей, выявление целевых сегментов, формирование ценности бренда и эффективное использование инструментов цифрового маркетинга в условиях конкуренции создают возможность реорганизации цепочки создания стоимости продукции и услуг, укрепления рыночных позиций продукции, диверсификации источников дохода. Кроме того, благодаря инновационным рекламным технологиям, постоянному общению с клиентами и гибкой к рыночной конъюнктуре ценовой политике полиграфические предприятия могут укрепить свои конкурентные преимущества не только на внутреннем, но и на международном рынках. «По оценкам объем мирового рынка коммерческой печати в 2024 году составил 501,36 млрд долларов США, среднегодовые темпы роста которого в период с 2025 по 2030 год ожидаются на уровне 3,2 процента»¹⁴. Кризисные явления на глобальном рынке полиграфии требует от предприятий, занимающихся полиграфической и издательской деятельностью, разработки эффективных маркетинговых стратегий, направленных на технологическое развитие, гибкое к новым технологическим укладам, предоставление клиентам персонализированных полиграфических услуг и эффективное удовлетворение потребительского спроса в цепочке поставок печатной продукции.

В мировой практике научные исследования, направленные на повышение конкурентоспособности предприятий полиграфической отрасли на основе маркетинговых стратегий, в частности разработка предложений и рекомендаций по совершенствованию научно-методологических основ внедрения инновационных маркетинговых стратегий, направленных на открытие новых рыночных возможностей для предприятий в цифровой среде, исследования особенностей поведения потребителей печатных изданий, разработки эффективных маркетинговых стратегий для издательских компаний и печатной продукции, создания системы электронной торговли и системы поставок на международном уровне, обеспечения функционирования и конкурентоспособности издательств в глобальной цифровой среде являются одними из актуальных проблем современности.

В последние годы в полиграфическую и издательскую сферу Узбекистана были внедрены передовые научно-технические достижения, выводящие его на современный уровень, повысилось качество издаваемых книг и всей печатной продукции в соответствии с международными стандартами. Полиграфическая промышленность страны является не только

¹⁴ <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/commercial-printing-market>

важной отраслью экономики, но и отраслью, вносящей существенный вклад в социально-духовное развитие населения, на рынке которой сформирована специфическая маркетинговая среда. В республике эффективно функционируют около 3000 полиграфических и издательских предприятий, на которых занято более 15 тысяч человек. Однако приватизация и преобразование деятельности объектов книжной и розничной торговли, книжных магазинов и оптовых торговых предприятий, развитие систем распространения печатных изданий, журналов и книг в разрыве с запросами рынка, особенно результаты цифровой трансформации вызвало снижение спроса на печатные издания. Также, такие факторы, как развитие информационно-телекоммуникационных систем, издание электронных книг и получение информации с использованием сети Интернет, привели к усилению конкуренции среди печатных изданий. В результате резко обострилась проблема производства, распространения и продажи печатной продукции. Это требует ускорения работ по повышению конкурентоспособности полиграфических предприятий на основе маркетинговых стратегий.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-169 от 12 октября 2023 года «О дополнительных мерах по ускоренному развитию промышленности и ее базовых отраслей», № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», постановлениях Президента № ПП-295 от 15 августа 2024 года «О дополнительных мерах по дальнейшему повышению промышленного потенциала в регионах», № ПП-286 от 7 августа 2024 года «О мерах по развитию сотрудничества с известными международными брендами и поддержке национальных брендов в сфере промышленности», № ПП-392 от 12 октября 2022 года «О мерах по созданию дополнительных удобств для бесперебойного обеспечения сырьем промышленного производства», № ПП-3271 от 13 сентября 2017 года «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения», постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан №684 от 26 декабря 2023 года «О мерах по реализации программы «140 передовых промышленных предприятий» и внедрению системы «промышленная ипотека», №300 от 20 июля 2023 года «О мерах, направленных на улучшение экологической обстановки в отдельных отраслях промышленности, снижение негативного воздействия отходов на окружающую среду и здоровье населения, эффективное использование альтернативных источников энергии» и других нормативно-правовых актах, касающихся деятельности отрасли.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное научное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие

демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

